

INGLIZ VA O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDA MA‘DAN NOMLARINING MENTALLIK XUSUSIYATLARI

Radjabova Dilnoza Anvarovna,

Muhammad al Xorazmiy nomidagi TATU o‘qituvchisi

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida xalqning milliy-mental xususiyatlarini aks ettiradigan til birliklarini tadqiq etishga, ulardan amaliy foydalanishga alohida e‘tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Azal-azaldan jamiyat nutqida faol qo‘llanib kelingan va xalq og‘zaki ijodi namunalarida badiiy unsurlarga aylanib ulgurgan lingvistik birliklarga, jumladan, minerologik birliklarga zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashish, ularning leksik-semantik, milliy-mental xususiyatlarini ochib berish muhimdir. Buning uchun xalq og‘zaki ijodi namunalari (*doston, maqol, topishmoq, lirik qo‘shiqlar, o‘lan, yor-yorlar, motam qo‘shiqlari* singari qator janr namunalari) yig‘ilib, ularda aks etgan qimmatbaho tosh va ma‘dan nomlari va ularning mentallik xususiyatlarini ochib berishga alohida e‘tibor qaratildi.

“...Zulxumorning bozordagi ko‘shkning ustida yuzini ochib o‘tirishini, yigitlar ko‘rmanasiga bir lagan tilla hadya qilib, uni tomosha qilishlarini bilib oladi.”

“Ravshan” dostonida keltirilgan ushbu parchada o‘zbek millatiga xos go‘zal odatlardan yana biri – xonadonga yangi kelin tushirilsa, kelinni ko‘rish uchun ko‘rmanasiga turli hadyalar in‘om qilinishiga ishora bor. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida tilladan zarb qilingan zeb-ziynat ashyolari, turli buyumlar, qurollar “beklik”, “zo‘rlik”, “davlatmandlik”ni anglatib turgan:

“...Barchin qarasa, alplarning zo‘ri Ko‘kaldosh ekan: zo‘rlik nomiga boshida tilla jig‘asi bor, ostida saman yo‘rg‘asi bor”

Yoki:

*Oq kirovka, oltin sovut kiyaman,
Bor kuchimni bilagimga jiyaman
Olmos olsam qirmizi qon quyaman
G‘animlarning tanasini uyaman*

Alpomish tilidan aytilgan ushbu soʻzlarda yorga yetishish uchun mard boʻlish va dushmanga qarshi kurashish kerak degan gʻoya yotibdi. Xalqimizning azal-azaldan iymon-eʼtiqod, or-nomus birligi yoʻlida oʻzini ayamasligi dostonida yorqin aks ettirilgan. Bundan tashqari Alpomishning chin alp ekanini isbot qiluvchi oʻrinlardan birida shunday deyiladi:

“Hakimbek yetti yoshida Alpinbiy bobosidan qolgan oʻn toʻrt botmon birinjdand boʻlgan parli yoyni qoʻliga ushlab, koʻtarib tortdi, tortib qoʻyib yubordi. Yoyning oʻqi yashinday boʻlib ketdi, Asqar togʻining katta choʻqqilarini yulib oʻtdi”

Birinj – bronza boʻlib, tabiatda uchraydigan eng nodir, mustahkam kimyoviy xossaga ega maʼdanlardan biri. Alplarning yoyi aynan shu maʼdandan ekanligining boisi ham shunda. Botmon esa “ikki puddan oʻn bir pudgacha” yetadigan ogʻirlik oʻlchovi. Yetti yoshli Hakimbekning “oʻn toʻrt botmon birinjdand” boʻlgan yoyni koʻtarib tortishi uning chinakam alp ekanligini ifodalab turibdi.

*“...Umring uzoq, davlating behisob boʻlsin.
Tuproq ushlang, oltin boʻlsin.
Oʻlgunimcha sening xizmatkoring boʻlaman”.*

“Goʻroʻgʻli” dostonidan olingan ushbu parchada oʻzbek millatiga xos yana bir muhim jihat – duo-fotiha qilish (kimsaga ezgulik tilab aytiladigan olqish) namunasini koʻrishimiz mumkin. Odatda, bunday jarayonlarda xalq nutqida anʼana tusiga kirib qolgan tilaklar bildiriladi: “*tuproq ushlang, oltin boʻlsin*” birikmasi ham aynan shunga ishora qilmoqda. Va bu shunchaki aytilgan ezgu tilak emas, bu yerda xalqning nafaqat maʼnaviy boyligi, balki soha ilmi ham aks etgan. Barchamizga maʼlumki, oltin sanoatda bir necha usulda, jumladan, qum suv bilan yuvilib, zarralar hoida ajratib olinadi. Yuqoridagi birlikda aynan shunga ishora bor. Bu esa dono xalqimiz nutqidagi hech bir soʻz besamar va bemaqsad qoʻllanmasligiga: uning zamirida xalq tajribalari va bilimi, chuqur aql-zakovati yotganligining isbotidir.

Ingliz xalq oʻgʻzaki ijodi namunalaridan biri boʻlgan dostonlarda ham ingliz xalqining urf-odatları, maishiy hayoti, falsafasi, vatanparvarlik ruhi aks etgan.

Anglo- saksonlarning ilk afsonaviy dostoni “*Beowulf*” dan olingan ushbu parchaga e’tibor bersak:

*Hrothgar discoursed (to the hall-building went he,
He stood by the pillar, saw the steep-rising hall-roof
Gleaming with **gold-gems**, and Grendel his hand there):
Hrothgar gives thanks for the overthrow of the monster.*

Daniya qiroli Xrotgar mahluq Grendel qasriga kelganda, bu joyning oltin toshlar bilan porlayotganini ko‘rib hayratga tushadi. Eramizdan oldingi 700 – 750-yillarda yozilgan bu dostonida keltirilgan “*gold gems*” – “*oltin toshlar*” birligi anglo-saksonlarning bu qimmatbaho toshdan xabardorligini va uni kuch-qudrat ramzi sifatida qo‘llashganini kuzatish mumkin.

Qirol Artur va uning ritsarlari haqida yozilgan “*Le Morte D’Arthur*” dostonida ham “*gold*” – “*tilla*”, “*silver*” – “*kumush*”, “*carbuncle*” – “*almandin*”, “*steel*” – “*po‘lat*” kabi tosh nomlari uchraydi. Bu tosh nomlari ba’zi o‘rinlarda pul birligi sifatida ishlatilsa, boshqa o‘rinda insonning mavqeyi, boyligi va qudratini ifodalaydi. O‘tmishda ingliz qirollari o‘zlarining mard, jasur, janglarda dushmani mag‘lub etgan eng yaxshi jangchilarini tilla va kumush tangalar bilan mukofotlashganini shu dostonidan olingan quyidagi parchada ko‘rish mumkin:

*“And therefore withdraw you unto your lodging, and rest you as soon as ye may, and reward your good knights with **gold and with silver**, for they have well deserved it; for ye have matched this day with the best fighters of the world.”*

Quyidagi parchada esa nomlari keltirilgan tosh nomlari: “*gold, carbuncle va silver*” ritsarning mavqeyi, kuch qudratini ko‘rsatishga xizmat qilgan:

*“The knight bare in his shield three griffins of **gold**, in sable **carbuncle**, the chief of **silver**.”*

*“... and therefore the custom of this castle is, there shall no damosel pass this way but she shall bleed of her **blood in a silver dish**.”*

*“...bu qal'aning shunday odati mavjud, hech bir qiz bu yo‘ldan o‘tmaydi, lekin u o‘z qonini **kumush idishda** solishi darkor.”*

Boshqa metallardan farqli o‘laroq, kumush o‘ziga xos xususiyatga ega – u antibakterial xususiyatga ega, uning tarkibidagi kimyoviy elementlar bakteriya hujayralarining to‘planishiga to‘sqinlik qiladi. Kumushning bu xususiyati haqida nafaqat hozirgi odamlar, balki o‘tmishda ham yaxshi xabardor bo‘lishganini ko‘rish mumkin. Qadimda inglizlar insonlar qonini kumush idishga solib, uning sog‘lig‘idagi muammolarni aniqlashgan.

Ingliz xalq o‘g‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan mashhur ballada “**Robin Gud**” da eng ko‘p ishlatilgan mineral birlik bu “*gold*” – “*oltin*” bo‘lib, bu mineral “*pul, boylik*” ko‘chma ma’nolarida qo‘llanilgan:

*“After the fight in the abbey, the Sheriff of Nottingham asked Prince John for Robin Fitzooth's lands. The prince sold them to him for a lot of **money in gold.**”* (“Cherkovdagi jangdan so‘ng Nottingem sherifi shahzoda Jondan Robin Fitzuning yerlarini so‘radi. Shahzoda bu yerlarni unga katta miqdordagi **oltinga** sotdi.”)

Yoki:

*“Wait, ’ said Robin. ‘Can't you pay us something for your dinner? With a little **gold** I can help many poor families.’ The man did not answer for some time. Then he said, ‘I have **gold** in my bags - six hundred pounds! But I cannot give it to you.”* (“To‘xta,” dedi Robin. “Yegan taomingga pul to‘lolmaysanmi. Sen bergan ozgina tilla ko‘plab kambag‘allarga yordam berishi mumkin.” Erkak biroz o‘ylandi va aytdi: “Mening xaltamda olti yuz funt sterling **tilla tangalarim** bor! Biroq ularni senga berolmayman.”)

Ko‘rinib turganidek, har ikki misolda qo‘llanilgan “*gold*” – “*tilla tangalar*” ma’nosida kelgan.

Angliya va Shotlandiya xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan ballada juda uzoq tarixga ega. Ballada fojiali, kulgili yoki qahramonlik voqealarni hikoya qiluvchi lirik qo‘shiq bo‘lib, ularning eng saralari (305ta) “Child Ballads”da to‘plangan. Shu to‘plamdagi lirik qo‘shiqlarni tahlil qilar ekanmiz, ularda qo‘llanilgan minerologik birliklarning aksariyati “*boylik, xazina, pul birligi, kuch*

qudrat” semantik ma’nolariga ega ekanligini kuzatdik. Quyida ularning ba’zilaridan misol keltiramiz:

*I have seven good milk-white steeds,
Which were all foal'd within one year,
With them I'll give thee as much **gold**,
As all their backs are fit to bear.*

XVI asrda yashagan xalq qahramoni Jonni Armstrong haqida yozilgan “Johnnie Armstrong” balladasidan keltirilgan yuqoridagi parchada ham “*gold*” – “*oltin*” qimmatbaho tosh nomi keltirilgan. Qirol James tomonidan qo‘lga olinib, o‘limga mahkum etilgan Jonni Armstrong qirolidan ozod qilinishini va uning evaziga oltin ortilgan yettita oq ot berishni va’da beradi. Ko‘rinib turibdiki, oltin ma’dani hattoki qirollar tomonidan ham qadrlangan.

*Greensleeves was all my joy
Greensleeves was my delight,
Greensleeves was my **heart of gold**,
And who but my lady greensleeves.*

"Greensleeves" ingliz xalq qo‘shig‘i bo‘lib, uni Angliya qiroli Genrix VIII o‘zining bo‘lajak turmush o‘rtog‘i Annaga atab yozgan, deyiladi ayrim manbalarda. Qo‘shiqda qahramon yigit o‘z sevgisining rad etilganini hikoya qilib beradi va qizni ta’riflarkan, uning yuragini tillaga qiyoslab “*heart of gold*” – “*oltin yurak*” deb ataydi. Badiiy matnda “*oltin*” so‘zi ko‘pincha yaxshilik va poklik ma’nolarini bildiradi va “*heart of gold*” atamasi “*rahmdil, mehribon inson*” ma’nosida qo‘llanilgan.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, ingliz va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida qimmatbaho tosh nomlari nozik metaforik birliklar, yuksak poetik ko‘chimlar, badiiy tasvir namunalarini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beowulf: an Anglo-Saxon epic poem. – New York: W.W. Norton and Company, 2001. – P. 33

<https://conferencea.org>

2. Thomas Malory. Le Morte Darthur. – Oxford, UK: Oxford University Press, 2008. – P. 232
3. Robin Hood. – London: Pearson, 2000. – P. 11.
4. **Ian Pittaway** Greensleeves: Mythology, History and Music. (<https://earlymusicmuse.com>)